

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI  
VOLUME-3, ISSUE-02  
SIDQIY XONDAYLIQIY ASARLARIDA METAFORALARNING  
QO'LLANILISHI**

**Nazarov Salohiddin Sayfullayevich**

*O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati Peshko' tumani  
9-umumta'lim maktabi o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**O'zbek tilida annotatsiya:** mazkur maqolada polisemantik birliklarning badiiy matnda ishlatilishi, metaforalarning tabiati, ular orqali badiiy asarlarda qo'llaniladigan ma'nolar haqida fikr yuritiladi.

**O'zbek tilida kalit so'zlar:** badiiy matn, polisemiya, denotativ, ko'chma ma'no, sema, metafora, til, leksik birlik.

**Annotation in English:** This article discusses the use of polysemantic units in literary texts, the nature of metaphors, and the meanings conveyed through them in literary works.

**Keywords in English:** literary text, polysemy, denotative, figurative meaning, sema, metaphor, language, lexical unit.

**Аннотация на русском языке:** В данной статье рассматривается использование многозначных единиц в литературных текстах, природа метафор и значения, передаваемые ими в литературных произведениях.

**Ключевые слова на русском языке:** литературный текст, многозначность, денотативное, переносное значение, sema, метафора, язык, лексическая единица.

Polisemiya hodisasi barcha tillarda ham keng qo'llanadi. Har qanday til tarkibidagi leksik birliklar son nuqtayi nazaridan emas, balki semantik qirralarining kengligi bilan ahamiyatlilik darajasi o'lchanadi. Til birliklaridagi polisemiya mazkur tilning boy va keng qamrovliligida, shubhasiz, o'z o'rniga ega<sup>1</sup>. Borliqdagi narsa-buyum, o'rin-joy, voqea-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlar alohida tarzda nomlanmaydi, balki ularga nomning ko'chirilishi ma'lum, shu sababli tilimizning salmoqli qismini ko'chma ma'nolilik tashkil qiladi<sup>2</sup>. Polisemiya hodisasi bir so'z turkumi doirasida yuzaga chiqadi, chunki so'z ma'nosi nechta qo'shimcha semalarni

<sup>1</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Тошкент, 2000. – Б. 158.

<sup>2</sup> Жумаева Ф. Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. –Фарғона, 2018. –Б. 17.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI  
VOLUME-3, ISSUE-02**

ifodalaganidan qat'i nazar baribir asosiy, bosh ma'nosiga aloqador bo'ladi, shu xususiyati bilan ham ma'lum darajada boshqa hodisalarda farqlanib turadi<sup>3</sup>. Polisemiya hodisasi turkiy tillar tabiatiga xos bo'lib, har bir ko'chma ma'noning yuzaga chiqishi o'ziga xos holatda farqlanib turadi<sup>4</sup>.

Metafora. Metafora nom ko'chishi emas, balki ma'no ko'chishidir, chunki so'z ichki semalardan tashkil topadi, mana shu semalar birlashib, ma'lum bir leksik birlikni tashkil etadi. Masalan, *Qotmoq* a)ma'lum bir harakatsiz holatga kelmoq; b)ma'lum bir o'rindan jilmaslik; d)ma'lum bir o'ringa aloqadorlik. Bu semik qatorni yana davom ettirish mumkin. Ushbu semalarning ma'lum biri ko'chadi, nom esa shu ma'nosini yetaklab yuradi, xolos. *U tarrakdek qotib qoldi* gapida ma'lum bir ma'no, ya'ni qattqlik ma'nosi ko'chgan. Semantik maydon doimo keng miqyosda bo'ladi, mazkur ma'nolarni ifodalashga xizmat qiluvchi birliklarni topish doim ham oson kechmaydi, chunki semantik maydonlar turli xil qo'shimsha sememalarning mavjud bo'lishi, ularning stilistik, emotsional, ekspressiv vazifalari ham turadi, bularning barchasini yagona birlik bilan qamrab olish uchun polisemantilik hodisasidan foydalanish ijobiy samara beradi.

Istalgan badiiy matnda o'zaro o'xshashlik asosida ma'no ko'chishining to'rt jihatiga e'tibor qaratilishi lozimligiga e'tibor qaratildi:

- a) o'rin jihatdan o'xshashlik asosida ma'no ko'chadi;
- b) shakl o'xshashligi asosida ma'no ko'chadi;
- d) belgi jihatdan o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi mavjud;
- e) vazifa yoki harakat o'xshashligi asosida ma'no ko'chgan.

Quyida keltiriladigan misollarda metaforik ko'chimlarning turli darajadagi holatlarini kuzatish mumkin.

Qolg'um tamug' o'tida kuyub yuz ming ohim,

Shafqatlar ila manga chu boqmas esang qiyo(B-32). Ijodkor mazkur misrada juda ta'sirchn badiiy vositalardan foydalanadi. Oshiq qiynalayotganligini, undagi bu azobning chek-chegarasi ko'rinmayotganligini "tamug' o'tida kuyub" birikmasi bilan beradi, Mazkur metaforik ko'chimni qatlamli ko'chimsifatida qarash mumkin, chunki "do'zax, olov va kuymoq" birliklarining barchasi ham denotative ma'no ifodalashga xizmat qilgan. Insonning murakkab zamon va makon oralig'ida qolishi "tamug'", uning azob – uqubatlarga duchor bo'lishi "o'tida kuyub irikmasi vositasida badiiy tasvirlangan. Mazkur baytda ijodkorning badiiy maqsadi o'z holatini ifodalab berish

<sup>3</sup> Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент, Фан, 1975. –Б.47.

<sup>4</sup> Холмурадова М. "Кутадғу билиг" лексикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б.110.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI  
VOLUME-3, ISSUE-02**

bilan cheklanish emas, balki boshqalarga bunday azobni ravo ko'rmaslikka intilish hamdir. Baytda zohiran shakl, botinan belgi o'xshashligi asosida ko'chim mavjud.

Isyon yuki ostida qaddim duto erur,

Lutf-u karamdin elina ko'r ilkina aso(33). Bayt mazmuni juda chuqur, boshqa ijodkorlarning ijodida ma'shuqdan norozilik tendensiyasi ma'lum darajada farqlanib turadi, ijodkor isyon qiladi, bu esa unda zarar yetkazayotgani, bunga bardosh bera olmayotgani, natijada shu yukni ko'tarish uchun qo'lga hassa tutganini bayon etadi. Metaforaning ahamiyati shundaki, u orqali ijodkor maqsadining turlicha ekanligini birgina vosita yordamida tasvirlab berish imkoniyatiga ega bo'ladi, she'riy misralarda ham uning yukni ko'tara olmayotganligidan zorlanish, ham umr bo'yi, ya'ni keksayganiga qadar shu sitamni ko'tarib yurganligiga ishora qilinadi.

Har tarafg'a o'tganda o'ynatib samandini,

Yo'lida yotib oning bo'lmadim turob aslo(34). Alisher Navoiyning "Qilg'il" radifli g'azalida o'zini yor otining oyog'iga hino, uning itiga arqon bo'lishini istaydi, ammo Sidqiy Xonayliqiy butunlay yangicha metafora yordamida matnning ta'sirchanligini oshirishga, yangi badiiy mazmun bilan boyitishga erishadi. Ma'shuqaning o'zi ot o'ynatib oshiqning ko'chasidan o'tyapti, ammo lirik qahramon yorining jabr-sitamlaridan anchagina qiynalib qolgan, ta'bir joiz bo'lsa, zada bo'lgan shuning uchun ham uning otining oyog'i ostidagi tuproq bo'lgisi kelmaydi, ya'ni o'zini oyoqosti, qadrsiz qilgisi kelmaydi. Bunday ijodkorning o'zigagina xos bo'lgan metafora seantik maydonning kengayishiga sabab bo'ladi.

Qonima bo'yalg'aymen rashkdin, ango dengkim,

Ilgig'a xinolardin chekmasin xizob aslo(35). Oshiq azoblardan, qiynog'-u sitamlardan qon bo'lgan, qonga bo'yalgan, shuncha yetkazilgan jabr-sitamdan keyin ham ma'shuqasini aybdor qilgisi kelmaydi, uning qo'lidagi hino buning qoni emasligiga, barchasiga o'zi aybdor ekanligiga ishora qiladi. Yuqoridagi misollar orqali kuzatish mumkinki, Sidqiy Xondayliqiy ko'chma ma'noli birliklardan foydalanishga juda katta mahorat ko'rsatgan.

Hazrat Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy va forsiy tillarning solishtirish jarayonida turkiy tillar tabiatiga xos xususiyatlarga alohida to'xtalib o'tgan edi. Leksik ma'noning o'zgarish yo'llari quyidagilar: ma'no ko'chishi, ma'no kengayishi, ma'no torayishi. Ma'no ko'chishi va ma'no hajmining kengayishi ma'no taraqqiyotiga olib keladi<sup>5</sup>.

---

<sup>5</sup> Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008. –Б. 67.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI  
VOLUME-3, ISSUE-02**

Xulosa sifatida keltirish mumkinki, Sidqiy Xondayliqiy ham an'anaviy, ham shaxsiy metaforalardan unumli foydalana olgan va bu bilan tilimizning keng imkoniyatlarini ochib bera olgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Тошкент, 2000. – Б. 158.
2. Жумаева Ф. Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. –Фарғона, 2018. –Б. 17.
3. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент, Фан, 1975. –Б.47.
4. Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar. – Тошкент, Ма'naviyat, 1998.
5. Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б.110.
6. Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008. –Б. 67.